HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘zbek tilining elektron korpusini shakllantirish va undan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish

Pardayeva Muhayyo Soatmo‘min qizi
Termiz davlat universiteti Jurnalistika va filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24099700

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada o‘zbek tilining elektron korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari,uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va zamonaviy tilshunoslikdagi o‘tni tahlil qilinadi.Shuningdek, elektron korpusdan komputer livingistikasi va uslubshunoslik kabi yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari yoritiladi.
KALIT SO‘ZLAR: Elektron korpus, kompyuter livingistikasi,til texnologiyalari, audio matnli korpus, multimedia, o‘zbek tili elektron resurslar.

Bugungi globallashuv va raqamli texnalogiyalar rivojlanayotgan davrda milliy tillarning, xususan, o‘zbek tilining raqamli makondagi o‘rnini mustahkamlash asosiy masalalardan biri sanaladi.Ayniqsa,o‘zbek tilini zamonaviy texnologiyalar bilan takomillashtirish,uning elektron resurslarini yaratish va ilmiy izlanishlarda ulardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tilshunoslikda zamonaviy tadqiqot usullaridan biri elektron korpus texnologiysidir.Elektron korpus tilga doir yirik hajmdagi matnlarni yagona elektron bazaga birlashtirish,ularni tartiblash,va maxsus dastur ko‘magi bilan tahlil qilishga imkon yaratadi.

O‘zbek tilining elektron korpusini takomillashtirish faqat til birliklarini o‘rganish emas, milliy tilimizning boyligini saqlash, xalqaro raqamli axborot maydonida mavqeini yuksaltirishda muhim vosita sanaladi.

1.Elektron korpus tushunchasi va uning livingistik mohiyati

Elektron korpus---ma’lum tilga oid yozma va og‘zaki matnli ma’lumotlarning elektron shaklda jamlangan, belgilangan majmuidir.

Kundalik elektron kutubxonadan farqli ravishda, korpus matnlarni faqat saqlash bilan cheklanmaydi. Unda so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, grammatik qonun-qoidalari, gapdagi o‘rniga ko‘ra ma’nolari va boshqa til birliklari bilan munosabatlarini o‘rganish imkoniyati mavjud.

Misol tariqasida, tadqiqotchi o‘zbek tilidagi "Yurt"so‘zining badiiy asarda, publitsistik maqolalarda va ilmiy matnlardan qay holatda foydalanishini o‘rganishi mumkin.Negaki elektron korpus yordamida ushbu so‘zning qo‘llanilish holatlari,kontentlari va boshqa so‘zlar doirasida birikishi tahlil qilinadi.

Demak, elektron korpus til hodisalarini nazariy qarashlar bilan birgalikda amaliy dalillar asosida o‘rganishga ham xizmat qiladi.

2.O‘zbek tilining elektron korpusini shakllantirih murakkab, izchil jarayon bo‘lib,bir necha bosqichni qamrab oladi.

Birinchi bosqich --matn materiallarini yig‘ish.Bunda o‘zbek tilidagi ilmiy maqola,jurnal va gazetalar, rasmiy hujjatlar, badiiy asarlar, tarixiy manbalar hamda og‘zaki nutqiy namunalar to‘planadi.Tilning har bir uslubdagi ko‘rinishidan namuna olish bilan bir qatorda,uning nutqdagi holati ham o‘rinli

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

sanaladi.Rasmiy, badiiy, publitsistik, ilmiy yo‘nalishlari asosan yozma shaklda bo‘lsa,og‘zaki shakli nutqiy jarayoni bo‘lgani bois,ushbu jarayonga ham kuchli e’tibor qaratiladi.
Ikkinchi bosqich -- matnlarni raqamlashtirish va qayta ishlash.Qog‘oz shaklidagi ma’lumotlar elektron ko‘rinishga o‘tkaziladi,matnlar imloviy va texnik xatolardan tozalanadi.
Uchinchi bosqich --ma’lumotlar bazasini shakllantirish.Barcha matnli ma’lumotlar maxsus dasturiy tizimga joylanib qidiruv va tahlil imkoniyatlari yaratiladi.
To‘rtinchi bosqich -- tekshirish va takomillashtirish.Korpusdagi ma’lumotlar bazasining aniqligi matnlarning ishonchliligi va qidiruv natijalarining sifati nazoratga olinadi.
Mazkur bosqichning aniq va to‘laqonli amalga oshirilishi elektron korpusining ilmiy darajasini belgilaydi.

3. Elektron korpusdan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish.

Elektron korpus ilmiy tadqiqotlarda til va matnni xolis, statistik va keng ko‘lamda tahlil qilish uchun asosiy vosita sanaladi.
Birinchidan, leksikologik tadqiqotlarda antonimlik va sinonimlik munosabatlari qo‘llanilish chastotasi o‘rganiladi.
Ikkinchidan, morfologik izlanishlarda so‘zlarning grammatik shakllari,qo‘shimcha va so‘z turkumlarining qo‘llanilish xususiyatlari aniqlanadi.
Uchinchidan tarixiy tilshunoslikda turli davrlarga oid matnli ma’lumotlarni taqqoslash orqali tilning tarixiy taraqqiyoti va lug‘at tarkibidagi
o‘zgarishlar o‘rganiladi.
Shu xususiyatlar bilan elektron korpus tilshunoslik tadqiqotlarida ishonchli dalillar va statistik ma’lumotlar qabul qilish imkonini beruvchi asosiy ilmiy vositadir.

Elektron korpus va kompyuter livingistikasining o‘zaro aloqasi.

Kompyuter livingistikasi tabiiy,sof tilni kompyuter yordamida qayta ishlash,tahlil qilish va modellashtirish bilan shug‘ullanuvchi fan yo‘nalishidir.Elektron korpus esa ushbu yo‘nalish uchun zaruriy yirik hajmdagi til materiallarini taqdim etadi.
Xususan, elektron korpus quyidagi texnologiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega:
-Avtomatik tarjima
-Elektron va izohli lug‘atlar
-Imlo va grammatik xatolarni aniqlash
-Nutqni matnga aylantirish texnologiyalari
-Matnlarni avtomatik tahlil qilish vositalari
-Sun’iy intellektga asoslangan til modellari
O‘zbek tilidagi sifatli va muvozanatli elektron korpuslarning ko‘payishi ushbu texnologiyalarning tilimizda yanada aniq ishlashiga yordam beradi.

5.O‘zbek tilining elektron korpusini rivojlantirish istiqbollari.

O‘zbek tilining elektron korpusini takomillashtirish uchun bir qator vazifalar amalga oshirish lozim.Avvalambor,turli dasturlarga oid yozma manbalarni raqamlashtirish, zamon talablariga mos adabiy til bilan bir qatorda shevalarga oid materiallarni ham jamlash zarur.
Shuni ham ta’kidlash joizki,korpusga joylashtiriladigan matnlarning ilmiy va manbashunoslik jihatdan ishonchliligiga diqqat qaratish muhim sanaladi.Ma’lumotli matnlarni grammatik va semantik belgilash tizimini rivojlantirish hamda izlanuvchilar uchun qulay qidiruv mexanizmlarini yaratish talab etiladi.
Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tilining elektron korpusini yaratish ona tilimizni zamonaviy

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

axborot texnologiyalari asosida shakllantirish muhim va ustuvor yo‘nalishlardan biri.Elektron korpus tilshunoslikning turli sohalarida ilmiy izlanishlar olib borish,til birliklarining qo‘llanilish qonuniyatlarini aniqlash va statistik tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. MakEneri T., Hardi A. Korpus lingvistikasi: metod, nazariya va amaliyot. — Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 2012.
2. Sinkler J. Korpus, konkordans va kollokatsiya. — Oksford: Oksford universiteti nashriyoti, 1991.
3. Bayber D., Konrad S., Reppen R. Korpus lingvistikasi: til tuzilishi va qo‘llanilishini tadqiq etish. — Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni. «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
5. O‘zbek tili va kompyuter lingvistikasiga oid ilmiy maqolalar hamda tadqiqot materiallari.